



O'ZBEKISTONDA SAVDO YO'LLARINING TARIXIY- GEOGRAFIYADA TUTGAN O'RNI

Yuldosheva Bibirajab

t.f.f.d (PhD), BuxDU dotsenti

Azimova Munisa

BuxDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududidan o'tgan savdo yo'llarining tarixiy-geografik ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbekiston qadim zamonlardan buyon Markaziy Osiyodagi savdo chorrahalaridan biri sifatida tanilgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'lining mamlakatimiz orqali o'tishi nafaqat iqtisodiy rivojlanishda, balki madaniy almashinuv va xorijiy mamlakatlar bilan doimiy aloqalarda muhim rol o'ynagan. Maqolada savdo yo'llarining O'zbekiston tarixida tutgan o'rni, ularning iqtisodiy va madaniy yuksalishiga qo'shgan hissasi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, qadim zamonlardan bronza davrigacha mavjud bo'lgan savdo yo'llarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri o'rganiladi. Maqola savdo yo'llarining tarixi va geografik ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi va bu yo'llarning O'zbekiston tarixidagi o'rnini yanada yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Buyuk ipak yo'li, Yaqin va O'rta Sharq, Lojuvard yo'li, Shoh yo'li, Lazurit yo'li, Nefrit yo'li, karvon yo'llari, G'arbiy meridional yo'l, ipak qurti, pilla tolasi, Sopollitepa, Amir Temur, ot, qog'oz.



Аннотация:

В данной статье анализируется историко-географическое значение торговых путей, проходивших через территорию Узбекистана. С древних времен Узбекистан был известен как один из торговых перекрестков Центральной Азии. Особенно важную роль сыграл Великий Шелковый путь, который проходил по территории нашей страны, способствуя не только экономическому развитию, но и культурному обмену и стабильным связям с другими странами. В статье подробно рассматривается роль торговых путей в истории Узбекистана, их вклад в экономическое и культурное развитие. Также исследуется влияние торговых маршрутов, существовавших с древнейших времен до эпохи бронзы, на социально-экономическую жизнь. Статья направлена на глубокое понимание истории и географической значимости торговых путей, освещая их важность в истории Узбекистана.

Ключевые слова: Средняя Азия, Великий Шелковый путь, Ближний и Средний Восток, Лоджувардская дорога, Шахская дорога, Лазуритовая дорога, Нефритовая дорога, караванные пути, Западно-меридиональный путь, тутовый шелкопряд, коконное волокно, Сополлитепа, Амир Темур, лошадь, бумага.

Abstract: This article analyzes the historical and geographical significance of trade routes that passed through the territory of Uzbekistan. Since ancient times, Uzbekistan has been known as one of the key trade crossroads in Central Asia. The Great Silk Road, which traversed the country, played a crucial role not only in economic development but also in cultural exchange and fostering stable relations with other nations. The article provides a detailed exploration of the role of trade routes in Uzbekistan's history, highlighting their contributions to economic and cultural growth. Additionally, it examines the impact of trade routes that existed from the earliest times up to the Bronze Age on social and economic life.



This article aims to deepen the understanding of the history and geographical significance of these trade routes, shedding light on their importance in Uzbekistan's historical context.

Key words: Central Asia, Great Silk Road, Near and Middle East, Lojuward Road, Shah Road, Lazurite Road, Jade Road, caravan routes, West Meridional Route, silkworm, cocoon fiber, Sopollitepa, Amir Temur, horse, paper.

KIRISH

O'zbekiston hududi qadimdan Markaziy Osiyodagi muhim savdo chorrahalaridan biri sifatida tanilgan. Bu hudud orqali o'tgan savdo yo'llari nafaqat mahalliy iqtisodiy va madaniy hayotga ta'sir ko'rsatgan, balki butun Markaziy Osiyoning tarixiy taqdirida muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'lining O'zbekiston orqali o'tishi mamlakatning iqtisodiy yuksalishi va madaniy rivojlanishida hamda boshqa xorijiy davlatlar bilan uzluksiz hamkorlik aloqalarida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Buyuk Ipak yo'li qadimgi zamonlardan boshlab, Sharq va G'arb mamlakatlarini bog'lab turuvchi asosiy savdo magistrali sifatida tanilgan. O'zbekistonning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va rivojlangan qishloq xo'jaligi iqtisodiy o'sishga qulay sharoit yaratgan. Bu yo'l orqali nafaqat tovarlar, balki g'oya, bilim va madaniyatlar ham almashinuvi sodir bo'lgan.

Mazkur maqolada O'zbekiston hududida qadimdan mavjud bo'lgan savdo yo'llarining rivojlanish bosqichlari, ularning tarixiy-geografik ahamiyati va hozirgi davrgacha bo'lgan ta'siri haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ushbu yo'llarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi va boshqa davlatlar bilan madaniy almashinuvda tutgan o'rni haqida ham ma'lumotlar beriladi.

METODLAR

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma - ketlik, xolislik, tizimlilik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda qadimgi



O'zbekistonda savdo va savdo yo'llar tarixi turli xil manbalar asosida o'rganib tahlil qilinadi. O'z navbatida bu manbalar maqola matn va mazmunining boyishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, Yaqin va O'rta Sharqdagi turli hududlar va tarixiy-madaniy viloyatlarni bog'lovchi savdo yo'llari va ularning madaniy, siyosiy, mafkuraviy hamda iqtisodiy aloqalari ildizi neolit davriga, xususan miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklarga borib taqaladi. Bu davrda O'rta Osiyoda ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan, yangi yerlar aholi tomonidan faol o'zlashtirila boshlangan edi. Bronza davriga kelib bu jarayon yanada kuchaydi, va shu vaqtga kelib, Qoraqum va Qizilqum cho'llari hamda Pomir va Oloy tog'lari kabi murakkab hududlardan tashqari barcha yerdan qabilalar va etnik guruhlar joylashdi [1]. Bu hududlardagi moddiy madaniyat chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklariga asoslanar edi, va ular o'zaro savdo va madaniy almashinuv orqali bog'lanib turgan.

Ko'plab olimlar qadimiy savdo yo'llarining bronza davridayoq shakllanganligini va bu yo'llardan biri "Lojuvard yo'li" nomi bilan atalishini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Eron ahamoniylari hukmronligi davrida "Shoh yo'li" deb atalgan savdo yo'li ham mavjud bo'lgan. Yana ham oldinroq davrlarda Badaxshon lazuritiga bo'lgan talab tufayli "Lazurit yo'li" shakllangan, bu yo'l orqali Badaxshon lazuritlari Mesopotamiya va Misr hukmdorlarining saroylari hamda ibodatxonalarini bezash uchun yetkazilgan [2]. Shu bilan bir qatorda "Nefrit yo'li" ham paydo bo'lgan bo'lib, u Xotan va Yorkentdan Shimoliy Xitoy mintaqalariga borar edi. Sug'diyona va Baqtriyadan esa Old Osiyo mamlakatlariga aqiq toshlari olib ketilgan, Xorazmdan esa feruza eksport qilingan. Bu qadimiy yo'llar oxir-oqibat Buyuk Ipak yo'lining tarkibiga kirib, bu hududlarni bog'lovchi yirik savdo tarmog'iga aylanib ketgan.

Asosiy karvon yo'llaridan tashqari, O'rta Osiyoda ichki savdo yo'llari ham faoliyat ko'rsatgan. Masalan, Axsikentdan Koson orqali Chust vohasiga boradigan yo'l mavjud bo'lgan, shuningdek, Pop va Zarkent orqali konchilar qarorgohlari va yaylovlarga olib



boruvchi yo'llar tashkil etilgan edi. Qurama va Oloy tog'larining qazilma boyliklari va Zarafshon daryosining zaxiralari tufayli Ipak yo'lining bir tarmog'i "Oltin yo'l" nomini olgan. Bundan tashqari, O'rta Osiyoning kumushi katta talabga ega bo'lib, "Kumush yo'l" orqali Xazar xoqonligi va Bolg'or davlatidan o'tib, Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga yetkazilgan [6]. Bu yo'l Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i hisoblanib, VI asrdan boshlab faoliyat yuritgan [8].

Eng qadimiy yo'llardan yana biri miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda shakllangan "La'l yo'li" edi. Pomir tog'laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo va Misr hududlari orqali o'tgan. Pomirdan qazib olinadigan yarim qimmatbaho la'l toshi qadimgi Sharq zargarlari tomonidan yuqori baholangan, va bu toshdan yasalgan buyumlar Misr fir'avnlari maqbaralaridan ham topilgan. Eron ahmoniylari sulolasiga tegishli "Shoh yo'li" Kichik Osiyoning Efes va Sard kabi shaharlari bilan Eron poytaxti Suzani bog'lagan.

Bundan tashqari, Eron va Baqtriya orqali Sug'diyona, Toshkent vohasi hamda Qozog'iston hududlaridan o'tib Oltoygacha cho'zilgan yana bir yo'l mavjud edi, uning umumiy uzunligi 2400 km [8]. Ushbu tarmoq qadimdan o'ziga xos savdo va madaniy almashinuvning yo'nalishlarini shakllantirib, yirik savdo markazlari o'rtasida barqaror aloqalar o'rnatgan.

G'arb va Sharqni ming yillar davomida bog'lab kelgan muhim savdo yo'llaridan biri "Buyuk Ipak yo'li" hisoblanadi. Bu atama fanga XIX asrning 1870-yillarida nemis geografi Ferdinand fon Richthofen tomonidan kiritilgan bo'lib, unga qadar bu yo'l "G'arbiy meridional yo'l" deb atalgan edi. Asosiy savdo tovarlari orasida ipak muhim o'rin tutgan bu yo'lining nomlanishida aynan ipakning ahamiyati asos bo'lgan.

Ipakning kelib chiqishi masalasida turli fikrlar mavjud. Fan uchun ipakning vatani Xitoy ekani tan olingan haqiqatdir, ammo hind olimi Mukerji ipakning Xitoydan tarqalgan degan fikrni qabul qilmaydi [2]. U Hindistondagi tog'li hududlarda yovvoyi ipak qurti tut



daraxtlarida o'z pillalarini o'rashini ta'kidlaydi va ipakning Hindistonda ham mustaqil ravishda paydo bo'lgan bo'lishi mumkinligini ilgari suradi.

Xitoyda ipakning kelib chiqishi haqida bir qator afsonalar mavjud. Ma'lum bir rivoyatga ko'ra, miloddan avvalgi 2600-yilda Xitoy malikasi Si Ling Chi bog'da choy ichib o'tirganida, uning piyolasiga yuqoridan ipak qurti pilla tashlab yuboradi. Choyning issiqligida pilla yumshab, uning tolalari yoyilib ketadi va malika Si pilla iplarini piyolasidan olib tashlashga urinsa-da, ipak ipining uzunligi va mustahkamligi uni hayratda qoldiradi [2]. Shu voqea natijasida pilla iplarini kalava qilish usuli aniqlangan, deb hisoblanadi.

Xitoy xalqi bu hodisani ipak bilan bog'liq bo'lgan muqaddas ramz sifatida qabul qilib, osmon xudosi Si Ling Chi sharafiga har yili ipak bayramini o'tkazishni odatga aylantirgan. Shunday qilib, "Ipak yo'li" nafaqat savdo aloqalarini, balki Xitoyning ipak ishlab chiqarishdagi qadimiy an'alarini ham ifodalagan. Bu yo'l nafaqat iqtisodiy aloqalarni, balki madaniy va mafkuraviy almashinuvni ham kuchaytirgan.

Ilk o'rta asrlarga kelib, Ipak yo'lining yanada rivojlangani va kengaygani kuzatiladi. Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron va Mesopotamiya orqali O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan bu yo'l o'z davrida katta iqtisodiy, madaniy va siyosiy ahamiyatga ega edi [7]. Yunon tarixchilarining yozmalariga ko'ra, Xitoy ipagi miloddan avvalgi V asrdan boshlab Shimoliy Qora dengiz va Yaqin Sharq mamlakatlarida mashhur bo'lgan. O'rta Osiyoda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, xususan, Sopollitepada topilgan ipak matolari, bronza davrida (miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalari) janubiy viloyatlarda ipakchilikning mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi. Ammo bu matolar Xitoydan olib kelinganmi yoki mahalliy ishlab chiqarilganmi, degan savol hali javobsiz qolmoqda [2].

Akademik Asqarovning tadqiqotlariga ko'ra, Buyuk Ipak yo'li Xitoyning qadimgi markazi Siandan boshlanib, Lanchjou va Dunxuan orqali o'tgan. Janubiy-g'arbiy tarmoq Taklamakon sahrosidan Xotanga, undan Yorkent orqali Pomir tog'lari orqali Vaxonga yetib, Baqtriyaning poytaxti Balx (Zariasf) shahriga kelgan. Balxdan uchta asosiy tarmoq ajralgan: g'arbiy tarmoq Marvga, janubiy tarmoq Hindistonga, shimoliy tarmoq esa Termiz



orqali Darband, Nautak, va Samarqandga yo'naltirilgan. Shimoliy-g'arbiy tarmoq Dunxundan Bami, Kuchi va Turfan orqali Tarim vohasidagi Qashqarga borib, u yerdan Toshqo'rg'on, O'sh, Quva, Axsikent va Popga yetib borgan, so'ng Asht dashti orqali Xo'jand, Zomin, Jizzax yo'li orqali Samarqandga, Nautak yo'li bilan birlashgan.

Samarqanddan g'arb tomon esa yo'l Dabusiya, Malikcho'li orqali Buxoro va Romitanga, u yerdan Varaxsha orqali Boykent va Forobga, so'ng Amul shahriga olib borilgan. Amuldan esa yo'l Marvga, Urganch tomon Amudaryo bo'ylab cho'zilib ketgan. Bu yo'l nafaqat iqtisodiy jihatdan muhim bo'lgan, balki diniy va madaniy merosning tarqalishida, shuningdek, diplomatik aloqalarni mustahkamlashda ham katta rol o'ynagan [2]. Qadimgi "Ipak yo'li" bu hududlarda mavjud bo'lgan "Lazurit yo'li" va "Shoh yo'li" asosida shakllanib, Marvdan G'arbga tomon cho'zilgan karvon yo'llarini qamrab olgan va Xitoy, Hindiston, O'rta hamda Yaqin Sharq va O'rta Yer dengizi mamlakatlarini o'zaro bog'lab turgan.

Xitoy manbalariga ko'ra, bu savdo yo'lida otlar ayniqsa yuqori baholangan bo'lib, VIII asr boshlarida bitta otning narxi 40 taxlam ipakka teng bo'lgan. Yozma manbalar III-VII asrlarda Ipak yo'lining O'rta Osiyo va Yaqin Sharq orqali o'tuvchi qismi sug'dlar nazorati ostida bo'lganligini ko'rsatadi. VIII asr o'rtalariga kelib, yo'lining g'arbiy qismi arablar qo'liga o'tgan. XIII asrda Chingizxon barcha tarmoqlardagi nazoratni o'z qo'liga olgan, bu holat XIV asr o'rtalarigacha davom etdi. Keyinchalik, Ipak yo'li Temur va Temuriylar nazoratiga o'tdi [2]. Shu tariqa, Ipak yo'li faqat savdo emas, balki madaniy va siyosiy ta'sirlarni yoyish va mustahkamlashda ham o'ta muhim rol o'ynagan xalqaro yo'nalish sifatida shakllandi.

Amir Temur davrida "Buyuk Ipak yo'li"ning uzluksiz va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bu borada Amir Temurning quyidagi so'zlari e'tiborga loyiqdir: "Har bir mamlakat va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladim, ular qayerga borishmasin, Xitoy, Chinmochin, Hindiston, Arab mamlakatlari, Misr, Shom, Jazoir, Farangiston, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfalardan keltirsinlar" [3].



Savdo aloqalarining davlat va jamiyat hayotidagi hamda tashqi siyosatdagi muhim o'rnini yaxshi anglagan Amir Temur savdo karvon yo'llarining qurilishi va ta'mirlanishiga katta e'tibor qaratgan.

Xususan, Buyuk Ipak yo'lining shuhrati XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda, ya'ni Amir Temur va Temuriylar davrida yanada oshdi. Sohibqiron xalqaro savdoning mamlakat rivojlanishidagi ulkan ahamiyatini bilganligi sababli bu sohaning jadal rivojlanishiga alohida e'tibor berdi. Amir Temur savdo yo'llarini qo'riqlashni, odamlar, musofirlar va turli mamlakatlar savdogarlari manfaatlarini bosqinchilar va qaroqchilardan himoya qilishni davlat uchun muhim vazifa deb hisoblagan [5].

Amir Temur tashabbusi bilan mamlakatning har bir yirik shahrida savdo karvonlarining kirishi va chiqishini nazorat qiluvchi davlat nazorat xizmati va maxsus bojxonalar tashkil etildi. Savdo karvonlaridan mollarning hajmi va miqdoriga qarab boj to'lovlari undirilgan. Bu davrda Samarqand poytaxti dunyo savdogarlari uchun yirik savdo markaziga aylandi. Shahar ko'chalarida maxsus qurilgan muhtasham karvonsaroylar, savdo bozorlari va rastalarda tunu kun savdo ishlari davom etgan. Turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar o'z mollarini xaridorlarga sotgan yoki o'zlariga kerakli mahsulotlarni xarid qilgan [5].

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab o'sha davrda karvonsaroylar va shaharlar barpo etildi. O'rta Osiyo mamlakatlari bu yo'lining markazida joylashganligi sababli, savdogarlar Xorazm, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Termiz kabi shaharlarda o'z mollarini sotib, mahalliy mahsulotlarni xarid qilganlar. Bu savdo yo'li mazkur shaharlarning umumiy yuksalishiga, iqtisodiy va madaniy jihatdan gurkirab rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan [7]. O'rta asrlar O'rta Osiyo bozorlarida chetdan keltirilgan ko'plab mahsulotlar mavjud bo'lgan va hozirgi kunda Ipak yo'lidagi qadimiy shaharlar va manzilgohlarda olib borilayotgan arxeologik qazishmalar natijasida topilayotgan artefaktlar bu fikrning yorqin dalilidir.

Ilk o'rta asrlarda Samarqanddan Naxshab va Kesh shaharlari orqali Amudaryoning o'rta oqimidagi kechuvlarga, Hisor tog' dovonlari va Temir Darvoza orqali Toxaristonga



o'tuvchi savdo yo'li katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ayniqsa, Samarqand-Buxoro yo'nalishi bu davrda yanada muhimlashgan. Xitoy manbalarida Buxoro "An" nomi bilan qayd etilib, u Sharqiy Turkiston va Yettisuvdagi xoqon qarorgohini Poykent, Amul va Marv orqali Eron bilan bog'lovchi savdo yo'lining muhim bo'g'ini bo'lgan. Shu yo'nalish orqali Turk xoqonligining elchilari ham Eronga safar qilishgan. Toxariston va Sug'ddan Xorazm vohasiga, Kaspiybo'yi va Ustyurt orqali quyi Volgabo'yiga o'tuvchi karvon yo'llari ham katta ahamiyatga ega edi. Shimoliy Kavkaz hududida O'rta Osiyodan olib kelingan hunarmandchilik mahsulotlari, tangalar va boshqa topilmalar bu mintaqaning Vizantiya va Xazar xoqonligi bilan aloqalaridan dalolat beradi [10].

"Ipak yo'li" orqali Sharq va G'arb o'rtasida turli savdo va madaniy almashinuv amalga oshirilgan. Masalan, ilk o'rta asrlardan boshlab Xitoydan G'arb mamlakatlariga ipak va qog'oz chiqarilgan bo'lsa, G'arbdan Xitoyga shisha, jundan tikilgan matolar, gilamlar, oynalar, metallar, zeb-ziynat buyumlari, lazurit, biryuza, dorivorlar va zotdor otlar olib borilgan [2].

Savdo aloqalari xonliklar davrida ham rivojlangan edi. Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligida qo'shni davlatlar bilan savdo va elchilik munosabatlari yo'lga qo'yilgan. Shayboniylar sulolasi davrida Usmonli turklar bilan savdo elchilik aloqalari olib borilgan; ular davlat boshqaruvi, savdo va tijorat masalalarida bir-biriga fikr almashib, ittifoqlar tuzganlar. Buxoro va Xiva xonliklari o'z elchilarini Rossiyaga yuborgan, shuningdek, ayrim xonliklar rus davlati bilan bevosita aloqa bog'lashga harakat qilgan. XVI asrda Hindiston bilan olib borilgan elchilik aloqalari ham katta ahamiyat kasb etgan. Hindiston hukmdori Akbarshoh va Abdullaxon o'zaro elchilar almashgan, asosan Badaxshon, Shimoliy Afg'oniston va Xuroson hududlari uchun kurash siyosiy munosabatlarning muhim qismini tashkil qilgan [9].

Sharq va G'arb o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tagan bu hududning savdo ahli siyosiy maydonning kengayishidan unumli foydalanib, o'z faoliyatlarini jonlantirganlar. Ilgari savdo asosan Xitoy-Turkiston-Eron yo'nalishida olib borilgan bo'lsa, endilikda Kaspiy



dengizi va Shimoliy Kavkaz orqali ham savdo yo'llari rivojlantirildi. O'lkaning asosiy savdo hamkorlari Xitoy, Eron, Hindiston va Vizantiya hisoblangan. Bu davlatlarga to'qimachilik va ipak mahsulotlari, qimmatbaho toshlar, dorivorlar, zotdor otlar va boshqa mahsulotlar eksport qilingan [4].

Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arbni bog'lovchi asosiy savdo tarmog'i bo'lganligi sababli, bu yo'nalishdagi davlatlar undan o'z manfaatlari uchun foydalanib, o'z mavqeini mustahkamlashga intilganlar. Turli tarixiy davrlarda turli davlatlar bu yo'l ustidan nazorat o'rnatishga harakat qilganlar. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Eron ahmoniylari, miloddan avvalgi IV asrda makedoniyalik Iskandar va miloddan avvalgi II-I asrlarda Rim-Parfiya davlatlari o'rtasida Ipak yo'li ustida kuchli raqobat kechgan [5].

Mintaqamizdan o'tgan Ipak yo'lining faoliyatida suv yo'llari ham muhim o'rin tutgan. O'rta Osiyoning ichki suv yo'llari, xususan Amudaryo va Sirdaryo bo'ylab o'tgan yo'llar iqtisodiy va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu daryolar bo'ylab kechadigan savdo va aloqa yo'llari qadimdan rivojlanib, kemachilik va qayiqsozlikning rivojlanishiga zamin yaratgan. Amudaryo va Sirdaryo suv yo'llari, Orol va Kaspiy dengizi bo'yidagi bandargohlar mintaqada kemachilikning shakllanishi hamda savdo va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida asosiy o'rin tutgan.

Shunday qilib, Buyuk Ipak yo'li O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston uchun Sharq va G'arb o'rtasidagi vositachi sifatida muhim tarixiy rol o'ynadi. Bu yo'l xalqlarni nafaqat siyosiy, iqtisodiy, savdo va madaniy jihatdan bog'lagan, balki dunyo xalqlari o'rtasida tinchlik, totuvlik, qo'shnichilik va do'stlikni mustahkamlash yo'lida ham xizmat qilgan. Ipak yo'lining bu ahamiyati, tarixiy an'analari va o'zaro bog'lovchi rolini tiklash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Qadimiy avlod-ajdodlarimizning merosini davom ettirib, "Buyuk Ipak yo'li" an'alarini tiklash va bu yo'ldagi tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, barcha insonlarning muqaddas burchidir [2].



O'zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi unga xalqaro hamkorlikning yangi ufqlarini ochdi. Bugungi kunda O'zbekiston BMTning teng huquqli a'zosi sifatida turli davlatlar bilan savdo va iqtisodiy aloqalarni kengaytirmoqda. Bu harakatlar, ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li an'analari tiklashga yo'naltirilgan xalqaro loyihalarda sezilarli ko'rinadi. O'zbekistonning bu boradagi tashabbuslari butun dunyoda e'tirof etilmoqda.

1987-yilda YUNESKO tomonidan qabul qilingan "Ipak yo'li – muloqot yo'li" xalqaro dasturi O'rta Osiyo xalqlarining boy madaniy tarixini o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu dasturning asosiy maqsadi Sharq bilan G'arb o'rtasida yanada mustahkam madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatish, ko'plab xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlikni kuchaytirishdir. Mazkur dastur doirasida 30 dan ortiq xalqaro ilmiy konferensiyalar va seminarlar o'tkazilgan bo'lib, Samarqand (1990-yil oktabr) va Buxoroda (1996-yil fevral) o'tkazilgan anjumanlar bunga yorqin misol bo'la oladi [2].

O'zbekistonning so'nggi yillardagi faol siyosiy va iqtisodiy harakatlari ham Sharq va G'arbga, shuningdek, Janubga qulay yo'llar orqali chiqish, o'z mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish va davlatlararo muloqotni kengaytirishga qaratilgan. Bugungi kunda O'zbekiston o'z milliy manfaatlarini ustuvor qo'yib, xalqaro bozor uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga va Sharq bilan G'arb o'rtasida azaldan davom etib kelgan "ko'priklar" rolini o'ynashga intilmoqda.

Bu jarayonlar O'zbekistonning xalqaro maydondagi pozitsiyasini yanada mustahkamlab, uning nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu oliyjanob maqsad yo'lida O'zbekiston tarixiy Buyuk Ipak yo'li merosini asrab, yangicha zamonaviy tus berish orqali xalqaro hamkorlikning yangi bosqichlarini yaratishga faol izlanmoqda. Bu sa'y-harakatlar mamlakatning xalqaro miqyosda obro'si va nufuzini oshirishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Buyuk Ipak yo'li o'tmishda Sharq va G'arb o'rtasidagi eng muhim savdo va madaniy bog'lovchi yo'l bo'lib xizmat qilgan. O'rta Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston bu yo'lida asosiy vositachi sifatida nafaqat iqtisodiy va savdo aloqalarini, balki



xalqlar o'rtasidagi madaniy, siyosiy, va do'stona munosabatlarni mustahkamlashda ham muhim o'rin tutgan. Amir Temur va Temuriylar davrida Ipak yo'li faoliyatiga katta ahamiyat berilgan va bu yo'lining himoyasi, infratuzilmasi rivojlantirilgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston bu tarixiy yo'lining merosini saqlab qolish va yangi zamonaviy imkoniyatlar bilan boyitish uchun jiddiy qadamlar qo'ymoqda. YUNESKO tomonidan ilgari surilgan "Ipak yo'li – muloqot yo'li" dasturi hamda xalqaro miqyosda tashkil etilgan anjumanlar orqali O'zbekiston Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda faol ishtirok etmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirish, milliy iqtisodiyotini rivojlantirish va dunyo bilan yaqin hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Shunday qilib, Ipak yo'li nafaqat o'tmish merosi, balki kelajakni bog'lovchi ramz sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan va bugungi kunda ham O'zbekistonni global maydonda faol ishtirokchi sifatida tanitishda muhim rol o'ynamoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Murtazoyeva R. H. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: 2005. – B. 96-97.
2. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Hoshimov S. Vatan tarixi. – Toshkent: 2016. – B. 99.
3. Azamat Z. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: 2001. – B. 194-195.
4. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. – Toshkent: 2010. – B. 91-102.
5. Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: 2006. – B. 75.
6. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: 2013. – B. 80-81.
7. Oblomurodov N., Xazratqulov A., Tolipov F., Tursunov N. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: 2011. – B. 44-45.
8. Sa'dullayev A, Kostetskiy V, Norqulov N. O'zbekiston tarixi–Toshkent: 1999 – B. 149
9. To'rayev H., Mirzaqulov B. O'zbekiston tarixi. X jild. – Toshkent: 2023. – B. 207-213.
10. O'zbekiston tarixi. 1-kitob – Toshkent: 2018. – B. 472-474.



11. Shoimardonkulovich Y. D. et al. The role of entrepreneurship in achieving economic stability // *Academicia Globe* – 2021 – T. 2 – № 07 – С. 50-54
12. Yoldasheva B., Parizod S. Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O'рни // *Miasto Przyszłości*. – 2023. – T. 41 – С. 424-429.
13. Yavmutov D. S. THE WAYS TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF REGIONS BY IMPROVING THE STATE OF ECOLOGICAL PROBLEMS IN THE COUNTRY // *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*. – 2024. – T 3 – № 10 – С. 30-36.
14. Sayfiyev I., Yavmutov D. S. Transition to Green Economy in EU: Analyzing Policy and Economic Shifts // *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*. – 2024. – T 4 – № 8 – С. 1-4.
15. Shoyimardonqulovich Y. D. et al. TRADITIONAL AND ISLAMIC FINANCE: ASPECTS IN ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE REGIONS // *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE*. – 2024. – T 1 – № 6 – С. 90-96
16. Shodiyeva S. БУХОРО АМИРЛИГИДА ТУРК ЭМИССАРЛАРИ ФАОЛИЯТИ // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2022. – Т. 26. – №. 26.
17. Shodiyeva S. БУХОРО ҲУКМДОРЛАРИНИНГ ВАЛИАҲДЛИК МАСАЛАЛАРИ // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2024. – Т. 51. – №. 51.
18. Yusupova M. WEDDING CEREMONY AND DISHES: MODERNISM AND SPECIFIC FEATURES // *Theoretical & Applied Science*. – 2020. – №. 5. – С. 271-276.